

INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "OILA" KONSEPTINING
NAMOYON BO'LISHI

Yusupova Laylo Ilhom qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universtiteti

Xorijiy filologiya fakulteti 1-kurs magistranti

Mamatova Feruza Maxammadovna

O'zbekiston Milliy universtiteti

Ingliz tilshunosligi kafedrasida dotsenti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya: Maqolada ingliz va o'zbek maqollarida mavjud bo'lgan oila konseptining qanday ifodalanishi, ularning o'xshash va farqli taraflari tahlil qilinadi. Har bir xalqning madaniyati va dunyoqarashini maqollardek ochiq namoyon etuvchi lingvistik birlikni topish mushkul. Maqolaning ilmiy ahamiyati shundaki, u madaniy parallel va lingvistik yondashuv orqali ingliz va o'zbek tillarida oila konseptining shakllanish qonuniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oila konsepti, milliy-madaniy maqollar, lingvomadaniy tahlil, mental-lingvistik differensiya, milliy mentalitet

Annotation: This article examines the representation of the family concept in English and Uzbek proverbs, analyzing their similarities and differences. The cultural and cognitive worldview of each nation is often implicitly embedded in linguistic units, making their explicit identification within proverbs challenging. The scientific significance of this study lies in its exploration of the linguistic and cultural patterns underlying the conceptualization of family in English and Uzbek through comparative analysis.

Keywords: family concept, national-cultural proverbs, linguo-cultural analysis, mental-linguistic differentiation, national mentality.

Аннотация: В данной статье рассматривается репрезентация концепта семьи в английских и узбекских пословицах, анализируются их сходства и различия. Культурное и когнитивное мировоззрение каждого народа зачастую имплицитно закодировано в лингвистических единицах, что затрудняет их явное выявление в пословицах. Научная значимость данного исследования заключается в выявлении лингвокультурных закономерностей формирования концепта семьи в английском и узбекском языках посредством сравнительного анализа.

Ключевые слова: концепт семьи, национально-культурные пословицы, лингвокультурный анализ, ментально-лингвистическая дифференциация, национальный менталитет.

Maqollar - xalq ma'naviy merosi va donishmandligining eng yorqin namunalari hisoblanadi. Dunyoda hech bir xalq yo'qki, ularning tili va madaniyatida oila tushunchasi alohida o'rin tutmasa. Shunday ekan oilaga oid qadriyatlarni avloddan-avlodga yetkazishda maqollardan foydalanish muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek maqollarini tahlil qilish orqali shu ikki xalqning oila a'zolar o'rtasidagi vazifalari, oilaga bo'lgan munosabat va oilada tarbiyadagi farqlar va o'xshashliklar haqida xulosa chiqarish mumkin.

Konsept, oilaviy konsept va uning lingvomadaniy asoslari

Konsept (lot. *conceptus*-anglash, tushuncha), fikr obyektini haqidagi bilim, tasavvur, fikrlarning umumiylikni aks ettiruvchi struktur- mazmuniy ong birligi hisoblanadi. Dastlab, konsept atamasi 20-asrning 1-yarmida rus faylasufi S. Askoldov tomonidan muloqotga kiritilgan bo'lib, olim unga turli millat vakillari muloqotiga sabab bo'ladigan kommunikativ jarayon sifatida baho beradi [1]. Yana bir mashhur olim S. Stepanov tomonidan yozilgan "Концепты. Тонкая пленка цивилизации" kitobining ham asosiy atamasi konsept bo'lib, u konsept tushunchasini mantiq, falsafa va psixologiya fanlariga tegishli bo'lgan "Концепт" ga, tarixiy faylasuf Platon "g'oyalariga" o'xshash madaniy hodisa sifatida baholaydi [4].

Oila konseptiga to'xtaladigan bo'lsak, u mazmunan etik, etnik va falsafiy tushuncha sifatida tadqiqot uchun serqirra va mazmunli mavzu hisoblanadi. U turli xalqlarning madaniy, diniy va tarixiy rivojlanishiga qarab o'ziga xos xususiyatlarni o'zida jamlaydi.

Lingvomadaniyatshunoslik- til va madaniyatning o'zaro aloqalarini o'rganuvchi fan hisoblanib, unda xalqning dunyoqarashi, til birliklari va tafakkuri namoyon bo'lishi o'rganiladi.

O'zbek xalq maqollarida oila tushunchasi va ularning axloqiy-tarbiyaviy aspektlari. Maqol – arabcha "qavvola" so'zidan kelib chiqqan va "so'zlamolq, aytmoq" degan ma'nolarni anglatadi [5]. Binobarin, o'zbek tilida "maqol" so'zi ikki xil ma'noda, birinchisi, o'z lug'aviy ma'nosida – "so'z, nutq"ni bildirsam, ikkinchi ma'nosi, istilohiy bo'lib – "folklorda keng qo'llaniladigan janr" sifatida namoyon bo'ladi.

Ahil oila- baxtli, noahil oila- vaqtli [2]

Ushbu maqolda oilaning ijtimoiy va emotsional ahamiyati ta'kidlangan. Oila a'zolarining birgalikda harakat qilishi va bir-birini qo'llashining ahamiyatli tomonlari yoritilgan.

Ingliz xalq maqollarida oilaviy munosabatlarning lingvomadaniy refleksiya va diskursiv ifodalanishi

Ingliz tilida maqol so'zi "proverb" bilan ifodalanadi. Ushbu sohaning yetakchi tadqiqotchilaridan biri Wolfgang Mieder hisoblanadi. Uning "Proverbs: A Handbook" nomli asarida "proverb" atamasining ta'rifi va tahliliga alohida e'tibor qaratilgan.

Mieder "proverb"ni qisqa, lekin mazmunli ibora sifatida ta'riflaydi, u xalq donoligini ifodalaydi va avlodan-avlodga o'tib keladi [6]. Ko'plab ingliz olimlari maqollarning turli xususiyatlari mavzusida salmoqli ishlar qilishgan. Jumladan, Honek o'z izlanishlari natijasida, maqollarni jamiyatning barcha sohalarida folklorchi olimlardan to siyosatchilar va hatto huquqshunos olimlar ishida ham kata ahamiyatga ega deb bilgan va biz bu fikrga qo'shilamiz. U o'zining "A proverb in mind: the cognitive science of proverbial wit and wisdom" asarida maqollarning 7ta xususiyatlarini ochiq qilgan: 1. Personal, 2. Religious, 3. Formal, 4. Practical, 5. Cognitive, 6. Cultural, 7. Literary [3]:

Home is where the heart is

Shu o'rinda ko'rishimiz mumkinki, uy deganda faqat jismoniy joy emas, balki hissiy bog'liqlik ya'ni sentimentalist konsept muhim rol o'ynaydi.

Ingliz va o'zbek xalq maqollarida oila konseptining universal semantik parallellizmlari va kognitiv-pragmatik uyg'unligi

Ingliz va o'zbek xalq maqollarini o'rganish davomida, umumiy semantik tuzilishga ega, lekin ifoda jihatidan farq qiladigan semantik sinonimlarni uchratishimiz mumkin.

1. Like mother, like daughter

Onasini ko'rib qizini ol

Yuqoridagi ikki tilga oid oilaviy munosabatlarni aks ettiruvchi xalq maqollarini o'rganish mobaynida ularning paremiologik zahirasida universal maqollarning semantik va sintaktik strukturasi to'liq yoki qisman mos kelishi aniqlandi. Har ikki til xalq maqollari er-xotinning shaxsiy munosabatlariga aralashishdan qaytaradi.

2. Put not your hand between the bark and the tree

Er-xotin urushi - doka ro'mol qurishi

Ingliz va o'zbek maqollarida oila konseptining mental-lingvistik differensiyasi va lingvomadaniy kontrastiv tahlili

Ingliz tilidagi oilaviy munosabatlarga asoslangan maqollar o'zbek tilida ham uchrashi mumkin, ammo o'xshash mavzudagi maqollarning ifodalanishi, so'zlarning ishlatilishi va ularning ta'sir kuchi farqlidir. O'zbek tilida oilaviy birliklar patriarxal ijtimoiy tizim doirasida qaralib, maqollarda avlodlar o'rtasidagi vertical munosabatlar ustuvorlik qiladi.

Otang bor –oltin, onang bor - kumush

Ingliz tilida asosan individualism ustun, maqollarda ham shaxsiy erkinlik va mustaqillikni saqlash qarashlariga urg'u beriladi.

Xulosa: Ingliz va o'zbek maqollarida oila konseptini o'rganish jarayonida turli madaniy va lingvistik xususiyatlarga ega ekanligi namoyon bo'ldi. Ularda ingliz va o'zbek xalqining dunyoqarashi, fe'l –atvori, turmush tarzi va hayotiy normalarining aks etgan. Yuqorida ikki tildagi xalq maqollarining o'xshash jihatlarini ko'rishimiz

"ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI"
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

mumkin, ammo ulardagi obrazlar takrorlanmasligi o'sha xalqning dunyoqarashi bilan bog'liq. Aynan shu tasviriy obrazlar orqali ulardagi milliy bo'yoq boshqa xalq maqollarida uchramasligiga guvoh bo'lish mumkin. Maqola davomida oila konseptining ikki til xalq maqollarida aks etishi, ularning fundamental asoslari, kognitiv modellashuvi va diskursiv rejalashtirishini o'ziga xosligini tasdiqlash mumkin. Bu esa oilaviy qadriyatlarning jamiyat ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy evolyutsiyasi bilan bog'liq ekanligini anglatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Аскольдов С.А. Концепт и слово. Статья. Опубликовано в книге: Русская словесность: От теории словесности к структуре текста: Антология / Под общ. ред. В.П. Нерознака. – М.: Academia, 1997. – С. 267–279.

2. Мирзаев Т., Мусокулов А., Саримсоков Б. O'zbek xalq maqollari. – Т.: Шарқ нашриёти, 2005. – 610 с.

3. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. – М.: Языки русской культуры, 1997. – С. 41–42.

4. Хонек Р. A Proverb in Mind: The Cognitive Science of Proverbial Wit and Wisdom. – Psychology Press, August 1997, 26, 2016. – 318 p.

5. Шермаматова С., Мамадалиева Ю. O'zbek va Ingliz maqollarining o'ziga xos xususiyatlari va o'zbek tilidagi ekvivalentlari. – Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, 2023, 4 апреля.

6. Мидер В. Proverbs: A Handbook. – Peter Lang Inc., International Academic Publishers, 2004. – 304 с. Новое издание: 31 мая, 2012.